



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCES.UZ

30 NOYABR
№34

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
25-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
34-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-25**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
34-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-25**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 34-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Sunnatova Munavvar	
O'QUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI O'STIRISHDA STEAM YONDASHUV.....	7



ГЕОГРАФИЯ

О‘QUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI O‘STIRISHDA STEAM YONDASHUV

Sunnatova Munavvar,
Navoiy viloyat Qiziltepa tumani
18-umumta’lim məktəb
Geografiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumumiyy o‘rta ta’limda STEM yondashuv, fundamental bilimlarni amaliyatda faol qo‘llash orqali fanlar integratsiyasini ta’minalash hamda o‘quvchilarning ilk kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ilk kasbiy ko‘nikmalar va bilimlarni shakllantirishda binar darslarning tutgan o‘rni, binar darsning turlari, o‘qituvchi, amaliyatchi trener va ta’lim oluvchilarning faoliyati xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM yondashuv, ta’lim berish tartibi, kasbiy ko‘nikmalar va bilimlar, binar dars, o‘qituvchi, amaliyatchi trener va ta’lim oluvchi.

Mamlakatimiz bugungi kun ta’limida xalqaro tajribalarni o‘rganish, milliy ta’lim berish tizimimizga muvofiq yondashuvlarni amaliyatga tatbiq etish va kafolatli natijaga erishtiradigan ta’lim texnologiyalari, metodlarni qo‘llash dolzARB masalalaridan biri bo‘lib turibdi. Kundalik ta’lim berish tartibimizga innovatsiyalarni tatbiq etishda ta’lim oluvchilarning bilimini oshirish bilan bir qatorda ularning mantiqiy fikrlash, shaxsiy g‘oyalarini taqdim etish va daliliy xulosalar chiqarish ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini rivojlantirish muhimdir. Ta’lim berishni takomillashtirish orqali kelajak uchun zamonaviy va har jihatdan yetuk kadrlarni yetishtirish imkoniyatini yaratamiz. Jumladan, hozirda ta’lim tizimimizda STEM pedagogika asoslarini, yangi kasbiy kompetensiyalarini o‘zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish kabi masalalar yangidan yangi vazifalarni oldimizga qo‘ymoqda.

STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) abbreviaturasi ostida yangicha fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirilgan texnologiya, muhandislik, matematika kabi akademik va sohaviy fanlar kompleksi nazarda tutiladi. Ba’zan ushbu umumiy nomga «A» (Art - «san’at») komponenti ham qo‘shiladi (STEAM). Ta’limda STEM yondashuv umumta’lim məktəblarida sinf-dars tizimidan ijodiy faoliyatga tomon o‘tish, fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko‘chirish, ularni amaliyatda faol qo‘llash jarayoni orqali fanlar integratsiyasi (kesishmasi)da muammolar yechimining yangicha yo‘llarini izlash, lozim topilsa, kashf etishga yo‘naltirish kabi vazifalarni qo‘yadi. Ta’lim oluvchilarda ilk kasbiy ko‘nikmalar va bilimlar shakllantirilib boriladi. Nazariyning amaliyatga tatbiqida an’anaviy ta’lim metodlari bilan bir qatorda binar shakldagi ta’lim alohida o‘rin tutadi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: Binar dars qanday dars shakli?

Binar dars – bu ikkita nazariy fan yoki kasbiy modullarning tarkibiy qismlari birlashtirilgan o‘quv jarayonidir. U fanlararo aloqalarni amalga oshirish shakli hisoblanadi. An’anaviy ta’limdan farqli ravishda binar mashg‘ulotda ikki mutaxassis pedagog (o‘qituvchi va amaliyatchi trener) birgalikda ma’lum mavzu bo‘yicha ta’lim beradilar. Mashg‘ulotda o‘qituvchi, amaliyatchi trener va ta’lim oluvchilar o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadilar.

Binar darsda bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy qo‘llash uchun sharoit yaratiladi, ta’lim oluvchilarga o‘z ishlarining natijalarini ko‘rish, undan quvonch va mammuniyat olish imkoniyati beriladi.

Binar darsni o‘tkazishda quyidagi asosiy maqsadlarga erishiladi:

1. Yuzaga keladigan amaliy muammolarni hal qilishda umumiy yondashuvga va o‘quvamaliy faoliyatda ta’lim oluvchilarga yagona talablarning qo‘yilishiga rioya qilish.
2. “O‘qituvchi – amaliyatchi trener– ta’lim oluvchilar” uchlik muloqoti ta’sirida o‘quv



materialini idrok etishga qiziqish, diqqatli bo'lish va kuzatuvchanlik yanada ortadi, hissiy va mantiqiy xotira faollashadi, fikrlash jadallahashadi.

3. Ta'lif oluvchilarda nazariy bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash: nostandard ishlab chiqarish sharoitida, kerakli vaziyatlarda tezkorlik bilan yagona to'g'ri qarorni qabul qilish ko'nikmalarini tarbiyalash.

Binar darsda o'qitishning ko'p tamoyillari amalga oshiriladi, jumladan, quyidagilar eng muhimlaridir:

- ta'lif oluvchilarning ma'lum fanlarga oid u yoki bu bilimlarini amaliy faoliyatga tatbiq etishi;

- nazariyaning amaliyot bilan umumta'limning kasbiy ta'lif bilan o'zaro bog'lanishi;

- kasbiy yo'naltirilganlik o'rganilayotgan o'zaro aloqador masalalar, o'quv materiallarda ilk amaliy kasbiy ko'nikma va malakalarga yo'naltirilganligi.

Binar darsning pedagogik mohiyati – o'zaro aloqador fan mavzularini va ishlab chiqarish amaliyotini qorishiq o'rganishdir.

Binar darsning asosiy xususiyatlari

nazariy va amaliy o'qitish metodlarining bir darsda qorishiq holda qo'llanishi

ikki (binar) maqsadga erishiladi - nazariy bilinga ega bo'lish va uning amaliyotga tatbiqi

darsning nazariy va amaliy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikning o'ta yaqinligi

nazariy bilim olish va ilk amaliy ko'nikma, malakalarning shakllanish jarayonlari qorishib, bir-birni to'ldirishi

bir vaqtning o'zida nazariy bilim olish va ilk amaliy ko'nikma, malakalarning shakllanishi uchun moddiy texnik baza bilan ta'minlanishi

Binar dars ikki turda tashkil qilish mumkin:

1. Yangi materiallar bilan tanishtiruvchi dars – bu yangi materialni takrorlash orqali o'rganish va tayanch bilimlarni rivojlantirish, yangi materiallar bilan tanishish, aloqalarni mustahkamlash va o'rganilayotgan obyektlarga munosabat bildirishga undovchi mashg'ulot shakli. Mazkur dars turida turli ma'ruza shakllaridan foydalanish mumkin: hikoya qilish, tushuntirish, yo'riqnomalar, berish, ko'rgazmali, binar, maslahatli, ma'lumotli, oldindan ko'zlangan xatolar ustida ishlash ma'ruzalari.

2. Bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish, tizimlashtirish va mustahkamlash darsi – bu egallagan bilimlarni takrorlash va mustaqil ravishda amaliy topshiriqlarni bajarish, asosiy dalil, voqeа, hodisalarni tahlil qilish, bajarilgan topshiriqlarning natijasini xulosalash va tizimlashtirish, qo'llash va yangi ilg'or g'oyalarni ishlab chiqishga undovchi mashg'ulot shakli. Bunda faoliyat amaliy mashg'ulot tarzida tashkil etiladi.

Amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari orqali olib boriladigan binar dars mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan muhim jarayonlardan biridir. Amaliyotga yo'naltirilgan vazifalar nafaqat kasbiy, balki akademik intizom va fanga oid hamda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Bunday darslar bitta muammoni hal qilish uchun turli sohalardagi bilimlarni birlashtirishga, bilimlarni amalda qo'llashga imkon beradi.

Binar darslar kognitiv faoliyatni tashkil qilish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, olingan bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi. Ta'lif oluvchilarda darslarga qiziqish kuchayadi va o'quv materialini yodlash, tushunish hamda o'zlashtirish tezligi ta'minlanadi. Ushbu darslarda ta'lif oluvchilarning rivojlanishi uchun mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish imkoniyati yaratiladi.



Binar dars o‘quv jarayonida o‘qituvchi va amaliyotchi trenerning hamkorlik faoliyati

O‘qituvchif faoliyati	Amaliyotchi trenerning faoliyati
Ta’lim oluvchilarning maqsadli yondashuvi	
Ta’lim oluvchilardan o‘tilgan darslarni so‘raydi.	Avval ishlab chiqilgan amaliy ishlar sifatini tekshiradi.
O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha nazariy savollar tayyorlaydi. Ta’lim oluvchilarning savollariga javob beradi.	Mavzu bo‘yicha o‘quv amaliy ishlar (vazifalar) ni bajarishda nazariy bilimlarni tabbiq etish metodlarini tushuntiradi. O‘rganilayotgan amaliy ishlarning bajarish metodlarini namoyish qiladi.
Mashg‘ulotning nazariy ma’lumotlarini va trener tomonidan ko‘rsatilgan amaliy jarayonlarni sifatli qabul qilishni nazorat qilish	
Ta’lim oluvchilarning bajariladigan amaliy mashqlarni, nazariy bilimlarni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llashni anglashi (tushunishi) uchun tavsiyaberadi.	Ta’lim oluvchilarga o‘rganilgan metodlar va uslublarni amaliy faoliyatda qo‘llash jarayoni bo‘yicha ko‘rsatma beradi.
Yakuniy ko‘rsatma berish	

Ma’lum mavzu, bo‘lim yakunida, umumlashtiruvchi, mustahkamlovchi dars sifatida binar darslarni tashkil etish samara beradi. O‘qituvchi va amaliyotchi trenerning ko‘z o‘ngida ta’lim oluvchilarning bilimidagi bo‘shliqlar namoyon bo‘ladi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bu kabi darslar an’anaviy ta’lim shakllaridan farqli o‘laroq o‘quv materialini yanada chuqurroq va sifatli o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Binar darslar ta’lim oluvchilarda nazariy tayyorgarlikka yangicha qarash hamda ushbu bilimlarni amaliyotga tatbiqi orqali ma’lum kasbni tanlash va yanada o‘zini rivojlantirishga yordam beradi.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(25-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000